
QADRING BALAND BO'LSIN, ONA TILIM!

21 oktyabr - O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun munosabati bilan Toshloq tumanidagi 12-IDUMda tadbir bo'lib o'tdi. Sanaga bag'ishlab o'tkazilgan tadbir o'quvchi yoshlar o'rtasida bayramona ruhda o'tdi.

"Qadring baland bo'lsin, ona tilim!" shiori ostidagi tadbirda ona tilimizni ulug'lovchi she'rlar, qo'shiqlar va hikmatli so'zlar o'quvchilar tomonidan tomoshabinlarga taqdim etildi. Ayniqsa, Alisher Navoiy hamda adabiyot darg'alarimiz Abdulla Qodiriy, Cho'lpon va Behbudiy siymolarini sahnaga kirib kelishi tomoshabinlarni qalblarini to'lqinlantirdi.

2022-10-22 10:05:10